



## Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda kreativ o'yin faoliyatining o'rni va ahamiyati

**Fozilova Odina Nabiyevna –**

Farg'ona davlat universiteti

Maktabgacha ta'lim kafedrası dotsenti,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: [abobakirovaodina78@gmail.com](mailto:abobakirovaodina78@gmail.com)

ORCID: <https://orcid.org/0009-0003-7616-7612>

**Teshaboyeva Shohida Urinboy qizi–**

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati o'yin bo'lib, bolalarning tabiiy ehtiyoji orqali atrof-muhitni anglaydi, voqea-hodisalarni tushunadi, tengdoshlari bilan muloqot qiladi va o'zining ichki imkoniyatlarini namoyon etish yoritilgan. Kreativ o'yin faoliyati bolalarda nutqni rivojlanishning eng samarali pedagogik vositalarni qo'llash usullari yoritilgan. Shuningdek nutqni rivojlanishida kreativ o'yinlar orqali nutqning barcha komponentlari – fonetik, leksik, grammatik va bog'lanishi muhim ekanligi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, bolalar nutqni rivojlantirish, kreativ o'yinlar, komponentlar, o'zbek xalq og'zaki ijodi.

## Роль и значение креативной игровой деятельности в развитии речи детей дошкольного возраста

**Аннотация.** В данной статье освещается, что основной деятельностью детей дошкольного возраста является игра, посредством которой дети удовлетворяют свои естественные потребности, познают окружающую среду, осмысливают события и явления, общаются со сверстниками и проявляют свои внутренние возможности. Рассматриваются способы применения наиболее эффективных педагогических средств развития речи у детей через творческую игровую деятельность. Также отмечается важность развития всех компонентов речи фонетического, лексического, грамматического и связной речи посредством творческих игр.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, развитие речи детей, творческие игры, компоненты, узбекское устное народное творчество.

## **The role and importance of creative play activities in the development of preschool children's speech**

**Annotation.** *This article highlights that play is the main activity of preschool children. Through play, children satisfy their natural needs, explore the surrounding environment, understand events and phenomena, communicate with their peers, and demonstrate their inner potential. The article discusses methods of using the most effective pedagogical tools for developing children's speech through creative play activities. It also emphasizes the importance of developing all components of speech phonetic, lexical, grammatical, and coherent speech through creative games.*

**Keywords:** *preschool education, development of children's speech, creative games, components, Uzbek oral folk art.*

### **KIRISH**

Maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati o'yin hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son qarori hamda 2026-yil 5-fevraldagi PF-19-son farmonlarida bolalarning intellektual, ma'naviy-axloqiy, ijodiy va jismoniy rivojlanishini ta'minlash, o'yinga asoslangan ta'limni joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi ham bolaning ijodiy va nutqiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Maktabgacha yosh (3–7 yosh) bola rivojlanishining eng muhim davridir. Aynan shu davrda nutq, tafakkur, xotira, tasavvur va ijtimoiy munosabatlar jadal shakllanadi. Nutq shaxs rivojlanishining markaziy omili bo'lib, bola atrof-muhitni anglaydi, o'z fikrini ifodalaydi va boshqalar bilan muloqot qiladi. L.S. Vigotskiy, D.B. Elkonin va A.N. Leontev kabi olimlar nutqning muloqot va o'yin faoliyati jarayonida shakllanishini ilmiy jihatdan asoslab berganlar. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarga ko'ra, bolalar nutqini rivojlantirishda kreativ o'yinlar alohida ahamiyatga ega. O'yin jarayonida bola yangi so'zlarni o'zlashtiradi, rollarga kiradi, tasavvur va fikrini ifodalaydi hamda erkin muloqot qiladi. Shuning uchun maktabgacha ta'limda kreativ o'yinlardan foydalanish bolalarda nutqning fonetik, leksik, grammatik va bog'lanishli jihatlarini kompleks rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish masalasi ko'plab pedagog va psixolog olimlar tomonidan tadqiq etilgan. L.S.Vigotskiy nutq rivojlanishini ijtimoiy muloqot bilan bog'lab, bolaning nutqiy faoliyati kattalar va tengdoshlari bilan hamkorlik jarayonida shakllanishini asoslab bergan. D.B. Elkonin maktabgacha yosh davrida o'yin faoliyatini yetakchi faoliyat turi sifatida e'tirof etib, o'yin orqali bolaning nutqi, tafakkuri va shaxsiy sifatleri rivojlanishini ta'kidlagan. A.N.Leontev esa faoliyat nazariyasida nutqning amaliy faoliyat jarayonida shakllanishini ilmiy jihatdan asoslagan.

Mahalliy olimlardan F.R.Qodirova maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqib, bolalarda bog'lanishli nutq, lug'at boyligi va muloqot madaniyatini shakllantirish yo'llarini yoritgan. O.Hasanboyeva va boshqa tadqiqotchilar esa maktabgacha ta'limda o'yin texnologiyalarining ahamiyatini ochib berganlar. Tahlil qilingan ilmiy manbalar kreativ o'yinlarning bolalar nutqini rivojlantirishdagi samarali pedagogik vosita ekanligini ko'rsatadi.

Mazkur maqolani tayyorlash jarayonida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'rganish, qiyosiy tahlil, kuzatish hamda umumlashtirish

metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'llanilayotgan kreativ o'yinlar va ularning bolalar nutqiga ta'siri pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar asosida kreativ o'yinlarning bolalar nutqini rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati yuzasidan ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

### **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda kreativ o'yinlardan muntazam va maqsadli foydalanish yuqori samaradorlikka ega. Kreativ o'yinlar jarayonida bolalar yangi so'zlarni o'zlashtiradi, ularni nutqida faol qo'llashga harakat qiladi hamda erkin muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, rol va sahnalashtirilgan o'yinlar bolalarning dialogik va monologik nutqini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Kuzatishlar natijasida "Do'kon", "Shifokor", "Bog'cha" kabi rol o'yinlarda ishtirok etgan bolalar o'zaro muloqotga faol kirishgani, savol-javob qilish, fikr bildirish va suhbatni davom ettirish ko'nikmalarini namoyon etgani aniqlandi. Ertak va hikoyalar asosida tashkil etilgan dramatizatsiya o'yinlarida esa bolalar voqealarni ketma-ket bayon qilish, obrazlar nutqini ifodalash hamda o'z fikrlarini izchil tarzda bayon etishga intildilar. Bu esa bog'lanishli nutqning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Didaktik o'yinlar orqali bolalarning lug'at boyligi kengaydi, so'zlarning ma'nosini anglash va ulardan o'rinli foydalanish malakalari shakllandi. "Kim tez topadi?", "So'zni davom ettir", "Ortiqchasini top" kabi o'yinlar bolalarning fikrlash faolligini oshirib, grammatik jihatdan to'g'ri gap tuzish qobiliyatini rivojlantirdi. Shuningdek, topishmoqlar, tez aytishlar va sanamachoqlardan foydalanish tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, nutq ravonligini oshirish hamda eslab qolish qobiliyatini mustahkamlashga yordam berdi.

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, kreativ o'yinlar nafaqat nutqiy rivojlanish, balki bolalarning ijodiy fikrlashi, tasavvuri, mustaqilligi va kommunikativ kompetensiyalarining shakllanishiga ham xizmat qiladi. O'yin jarayonida bola o'zini erkin his qiladi, fikrini ochiq ifodalaydi va tengdoshlari bilan hamkorlikda faoliyat yuritadi. Bu esa uning ijtimoiylashuvi va nutqiy faolligining ortishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish bolalarda milliy qadriyatlarga hurmat, ona tiliga muhabbat va nutq madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy o'yinlar va folklor namunalarini kreativ o'yinlar bilan uyg'unlashtirish natijasida bolalarning nutqiy faolligi, so'z boyligi va muloqot madaniyati yanada rivojlanishi kuzatildi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari kreativ o'yinlarning maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita ekanligini tasdiqladi. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlari amaliyotida kreativ o'yinlardan keng foydalanish bolalarning nutqiy, intellektual va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish ta'lim-tarbiya jarayonining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Nutq bolaning tafakkuri, dunyoqarashi, ijtimoiy munosabatlari va shaxs sifatida shakllanishida asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning nutqiy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan samarali pedagogik usul va texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari kreativ o'yinlarning bolalar nutqini rivojlantirishdagi samaradorligini tasdiqladi. Rolli, didaktik, dramatizatsiya, harakatli hamda konstruksiyalash o'yinlari orqali bolalarning so'z boyligi kengayadi, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish ko'nikmalari shakllanadi, bog'lanishli nutqi rivojlanadi va muloqot madaniyati takomillashadi. O'yin jarayonida bolalar erkin fikr yuritishga, o'z fikrini mustaqil va ravon

ifodalashga, tengdoshlari bilan samarali muloqot qilishga o'rganadilar. Shuningdek, o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalaridan – tez aytishlar, topishmoqlar, maqollar va sanamachoqlardan foydalanish bolalarda nutqiy faollikni oshirish, milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini shakllantirish hamda ona tiliga muhabbatni kuchaytirishga xizmat qiladi. Milliy va kreativ o'yinlarning uyg'unligi bolalarning nafaqat nutqiy, balki ma'naviy-axloqiy, estetik va ijodiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Demak, kreativ o'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning samarali pedagogik vositasi bo'lib, ularning kommunikativ kompetensiyalari, ijodiy tafakkuri va ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Kelgusida maktabgacha ta'lim amaliyotida kreativ o'yinlardan yanada kengroq foydalanish, ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish bolalarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashga xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son qarori "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida".
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-fevraldagi PF-19-son Farmoni "Maktabgacha va maktab ta'limi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida".
3. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. – Toshkent, 2022.
4. Qodirova F.R., Toshpo'latova Sh.Q., Kayumova N.M., A'zamova M.N. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Tafakkur, 2019. – 560 b.
5. Qodirova F.R. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 240 b.
6. Hasanboyeva O., Tojiboyeva D., Nurmuhamedova Sh. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. – 384 b.
7. Abdukarimova D. Bolalar psixologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2016. – 256 b.
8. Vigotskiy L.S. Tafakkur va nutq. – Moskva: Pedagogika, 2019. – 352 b.
9. Elkonin D.B. Psixologiya igri. – Moskva: Vados, 2018. – 304 b.
10. Leontev A.N. Faoliyat. Ong. Shaxs. – Moskva: Smisl, 2020. – 431 b.
11. Usmonova Sh. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik asoslari // Maktabgacha ta'lim jurnali. – Toshkent, 2023. – №4. – B. 35–40.
12. Yuldasheva M. Kreativ o'yinlar asosida bolalar nutqini rivojlantirish metodikasi // Pedagogik mahorat. – Buxoro, 2024. – №2. – B. 112–116.